

EDITORIAL LEADERSHIP

Editor-in-Chief:

Samandar Niyazimbetov, DSc (History), Professor

Deputy Editor:

Mukhriddin Sodirjonov, PhD (Sociology), Associate Professor
Namangan State University

Editorial Board:

Bozorkul Karimov, PhD (Philosophy), Associate Professor
Bukhara State Technical University

Dilfuza Rasulova, DSc (Economics), Professor
Graduate School of Business and Entrepreneurship under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan

Dilshod Sattarov, PhD (Law), Associate Professor
Customs Institute of the State Customs Committee

Djamaliddin Musayev, PhD (Law), Associate Professor
Customs Institute of the State Customs Committee

Farkhod Abdurakhmonov, DSc (Economics), Associate Professor
Tashkent State University of Economics

Ibrohim Ikramov, PhD (Philosophy), Associate Professor
Namangan State University

Jasur Gaipov, PhD (Economics)
Tashkent State University of Economics

Kamaldin Yunusov, DSc (Political Science), Professor
Andijan State University

Kamoliddin Sirojiddinov, PhD (Economics), Associate Professor
Namangan State University

Khusan Abuev, PhD (History), Associate Professor
Navoi State University


Komiljon Tajibaev, PhD (Economics)
Namangan State University

Marapat Akayeva, PhD (Law), Associate Professor
Namangan State University

Nurbek Toshkanov, PhD (Law)
Tashkent State University of Law

Shavkat Turayev, PhD (Philosophy), Associate Professor
National University of Uzbekistan

Ural Khaydarov, DSc (Economics), Associate Professor
Tashkent State University of Economics



KEY FACTORS FOR ENHANCING THE EFFECTIVENESS OF WOMEN'S INNOVATIVE THINKING IN THE PROCESSES OF RENEWAL IN UZBEKISTAN

Muhayyo To'yeva¹.

¹ Lecturer, Department of Social Sciences, Faculty of History, Uzbekistan National Pedagogical University.

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.19455077>

Key words: *innovative thinking, women, renewal processes, gender equality, socio-political activity, quality education, digital technologies, innovative potential.*

ABSTRACT

The purpose of this study is to identify the key factors for enhancing the effectiveness of women's innovative thinking in the context of renewal processes in Uzbekistan. The research employs historical-logical, comparative, and systemic analysis methods, based on philosophical, social, and normative sources to comprehensively examine the issue. The findings indicate that the development of women's innovative thinking is closely associated with quality education, the strengthening of gender equality principles, state support mechanisms, the advancement of digital technologies, and the socio-cultural environment. In addition, national values and ethical principles play a significant role in shaping innovative thinking. The study concludes that enhancing women's innovative potential is a crucial condition for ensuring societal modernization and sustainable development.

O'ZBEKISTONDAGI YANGILANISH JARAYONLARIDA XOTIN-QIZLAR INNOVATSION TAFAKKURI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR

Kalit so'zlar: *innovatsion tafakkur, xotin-qizlar, yangilanish jarayonlari, gender tengligi, ijtimoiy-siyosiy faollik, sifatli ta'lim, raqamli texnologiyalar, innovatsion salohiyat.*

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda yangilanish jarayonlari sharoitida xotin-qizlar innovatsion tafakkuri samaradorligini oshirish omillarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda tarixiy-mantiqiy, qiyosiy va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi hamda falsafiy, ijtimoiy va normativ manbalar asosida muammo kompleks o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, xotin-qizlar innovatsion tafakkurining rivojlanishi sifatli ta'lim, gender tenglik tamoyillarining mustahkamlanishi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, raqamli texnologiyalar rivoji hamda ijtimoiy-madaniy muhit bilan uzviy bog'liqdir. Shuningdek, milliy qadriyatlar va axloqiy tamoyillar innovatsion fikrlashni shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Xulosa sifatida, xotin-qizlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish jamiyat modernizatsiyasi va barqaror taraqqiyotini ta'minlashning muhim sharti ekanligi asoslandi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jamiyatning barcha qatlamlari faol va mazmunli ishtirokini taqozo etmoqda. Ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy hayotdagi faolligini oshirish hamda ularning innovatsion tafakkurini rivojlantirish bugungi yangilanish jarayonlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Innovatsion tafakkur deganda, yangicha g'oya va yondashuvlarni ishlab chiqish, mavjud muammolarga kreativ va samarali yechimlar topish qobiliyati tushuniladi. Xotin-qizlar innovatsion salohiyatini yuksaltirish masalasini tahlil etishda tarixiy manbalarga murojaat qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Jumladan, "Avesto"da ayolga "inson hayoti va salomatligining asosi, sog'lom avlod tug'ilishining muhim omili" sifatida baho berilgan. Shuningdek, "Ayol va farzandlari sarson-sargardon bo'lgan yurt – eng yomon yurtidir" degan fikrning ilgari surilishi [1, B.366–369] ayolning jamiyat taraqqiyotidagi beqiyos o'rnini tasdiqlaydi. O'zbekistonda yangilanish jarayonlari sharoitida xotin-qizlar innovatsion tafakkuri samaradorligini oshirish muhim strategik vazifalardan biri bo'lib, mazkur yo'nalishda xalqaro miqyosda ham keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Xususan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda izlanishlar olib borilmoqda: xotin-qizlar huquqlari va iqtisodiyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik; ayollar huquqlarining inson huquqlari sifatida e'tirof etilishi; inson huquqlariga gender tamoyillari nuqtayi nazaridan yondashuv; xotin-qizlarning muhandislik va texnik sohalardagi ishtirokini kengaytirish orqali gender nomutanosibligini kamaytirish; hamda xotin-qizlarning boshqaruv tizimidagi rolini kuchaytirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Xotin-qizlarning maqomi, turmush tarzi va ijtimoiy faolligi masalalari g'arb va sharq falsafiy tafakkuri tarixida doimo muhim ilmiy yo'nalish sifatida qaralgan. Xususan, antik Yunon va Rim mutafakkirlarining asarlarida xotin-qizlarning ijtimoiy hayoti va faoliyatiga oid qator ilmiy qarashlar bayon etilgan [2]. Jumladan, qadimgi Yunonistonda ayollar maqomiga oid munozaralarda Arastu ayollarning biologik jihatdan erkaklarga nisbatan quyi turishini ta'kidlagan bo'lsa, Aflotun aksincha, ayollarning biologik jihatdan erkaklar bilan tengligi haqidagi g'oyani ilgari surgan [3].

Mazkur ilmiy qarashlar kontekstida xotin-qizlar innovatsion tafakkuri samaradorligini oshirish bir qator tizimli omillarga bog'liq ekanligi namoyon bo'ladi. Ushbu omillarning eng muhimlaridan biri sifatli ta'lim hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimi tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida xotin-qizlarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga keng jalb etish, ularning innovatsion loyihalardagi ishtirokini qo'llab-quvvatlash innovatsion tafakkur samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy jihatdan faol qatlamga aylanishi milliy darajada xalqaro umuminsoniy norma va mezonlarning ustuvorligini ta'minlash bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, mustaqillik davrining muhim vazifalaridan biri O'zbekistonning BMTga a'zoliq doirasida xalqaro konvensiya va shartnomalarga rioya etishni ta'minlashdan iborat ekanligini ta'kidlash lozim. Xususan, BMTning xotin-qizlar huquqlariga oid umumbashariy konvensiyalari bu borada muhim normativ asos bo'lib xizmat qiladi [4].

Jamiyatda gender tenglik tamoyillarini izchil mustahkamlash xotin-qizlarning innovatsion faoliyatga keng jalb etilishini ta'minlaydi. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan maqsadli dasturlar, grantlar, startap loyihalar va turli imtiyozlar xotin-qizlarning ilmiy, tadbirkorlik hamda texnologik faoliyatini rivojlantirishda muhim institutsional omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

MUHOKAMA

O'zbekistonda yangilanish jarayonlari sharoitida xotin-qizlar innovatsion tafakkuri samaradorligini oshirishning muhim asoslaridan biri ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini ta'minlash bilan uzviy bog'liqdir. Bu jarayonda o'zbek jamiyatining ma'naviy asoslari, xususan, islom dini aqidalarida ayolning yuksak maqomda e'tirof etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Muqaddas manbalarda ayol ona, qiz, xotin va singil sifatida ulug'lanib, ularga hurmat va e'tibor ko'rsatish erkaklik fazilatining ajralmas qismi hamda jannatga erishish omili sifatida talqin etiladi. Aksincha, ayolni ranjitish og'ir ma'naviy nuqson sifatida baholanib, Allohga shirk keltirish bilan qiyoslanadi [5]. Mazkur yondashuv jamiyat ma'naviy-axloqiy tizimining muhim tamoyillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, xotin-qizlar innovatsion tafakkurining rivojlanishi nafaqat texnologik bilimlar, balki milliy qadriyatlar va axloqiy me'yorlar bilan uyg'un holda shakllanishi lozim. O'zbek xalqining boy ma'naviy merosi, mustahkam oilaviy qadriyatlari va tarixiy-madaniy an'analari xotin-qizlarda mas'uliyat, ijodkorlik hamda ijtimoiy faollikni rivojlantiradi. Bu esa innovatsion fikrlashni chuqurlashtirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyot va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi xotin-qizlar uchun yangi imkoniyatlar maydonini yaratmoqda. Internet tarmoqlari, onlayn ta'lim platformalari va innovatsion markazlar orqali bilim olish, malaka oshirish hamda yangi loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari kengaymoqda. Ushbu omillar innovatsion tafakkurning shakllanishi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, xotin-qizlarning innovatsion faoliyati samaradorligi ko'p jihatdan oila va jamiyat muhitiga bog'liqdir. Oila a'zolari tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash, jamiyatda ayollarga nisbatan ijobiy munosabat hamda rag'batlantirish mexanizmlarining mavjudligi ularning yangi g'oyalarni yaratish va amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Innovatsion tafakkurni shakllantirishda ijtimoiy-madaniy muhitning ham o'rni beqiyosdir.

NATIJARLAR

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, BMT homiyligida xotin-qizlarga bag'ishlangan nufuzli sammitlarning tashkil etilishi, xotin-qizlarni zo'rvonlik va tazyiqlardan himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi, xotin-qizlar jamoat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash, ayollarning markaziy va mahalliy vakillik organlaridagi ishtirokini kvotalash tizimining joriy etilishi, ayollar bandligi va tadbirkorligini monitoring qilish mexanizmlarining rivojlantirilishi, shuningdek, "Ayollar daftari" tizimining ijtimoiy innovatsiya sifatida joriy etilishi ushbu yo'nalishdagi muhim amaliy qadamlar hisoblanadi. Mazkur chora-tadbirlar O'zbekistonda yangilanish jarayonlari doirasida xotin-qizlar innovatsion tafakkuri samaradorligini oshirish va ularning mehnat salohiyatidan samarali foydalanish orqali keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish imkonini bermoqda. Xotin-qizlarning ilmiy konferensiyalar, seminarlar, innovatsion forumlar va startup loyihalarda faol ishtirok etishi ularning tajribasini boyitadi hamda yangi g'oyalar shakllanishiga turtki beradi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi va uning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida olib borilmoqda. Jumladan, University of North Florida, The Center for the Advancement of Women in Engineering (CAWE) (AQSH), Department of Social Policy and Intervention, The University of Oxford (Buyuk Britaniya), Zentrum für Anthropologie und Gender Studies (ZAG), Albert-Ludwigs-Universität Freiburg (Germaniya), Institute for Gender Studies, Ochanomizu University (Yaponiya), Gender Institute, Australian National University (Avstraliya), Moscow Center for Gender Studies, Ivanovo Gender Studies Center, Ivanovo State University (Rossiya Federatsiyasi), shuningdek, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida (O'zbekiston) mazkur yo'nalishda tizimli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz tomonidan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, yosh avlodni komil inson va barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan siyosat doirasida respublika miqyosida ilgari surilgan besh muhim tashabbus alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tashabbuslarning yoshlar tomonidan keng qo'llab-quvvatlanishi, ayniqsa, qizlarni yoshligidan boshlab "Tarbiya go'daklikdan boshlanadi" tamoyili asosida tarbiyalashga e'tibor qaratilishi muhim pedagogik va ijtimoiy natijalarga xizmat qilmoqda [5, B.18].

O'zbekistonda yangilanish jarayonlari sharoitida xotin-qizlar innovatsion tafakkuri samaradorligini oshirish barqaror rivojlanish va jamiyat modernizatsiyasining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ta'lim tizimini takomillashtirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish, milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda oila va jamiyatda ijobiy muhitni shakllantirish orqali xotin-qizlarning innovatsion salohiyatini yanada rivojlantirish mumkin. Natijada xotin-qizlar jamiyat taraqqiyotining faol subyekti sifatida yangilanish jarayonlarida muhim o'rin egallaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlarda innovatsion tafakkurni rivojlantirish ko'p omilli jarayon bo'lib, unga zamonaviy ta'lim tizimi, ilmiy-texnologik yutuqlardan samarali foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini egallash, shuningdek, milliy qadriyatlar va aksiologik tamoyillarga asoslangan tarbiya jarayonini takomillashtirish kiradi. Shu bilan birga, davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar, gender tengligi siyosatining izchil amalga oshirilishi hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashuvi xotin-qizlarning innovatsion faoliyatini kengaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

XULOSA

Mazkur tadqiqot O'zbekistonda yangilanish jarayonlari sharoitida xotin-qizlar innovatsion tafakkuri samaradorligini oshirish masalasini kompleks yondashuv asosida tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlarning innovatsion tafakkuri jamiyat modernizatsiyasi va barqaror rivojlanishining muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Ushbu jarayon ko'p omilli xarakterga ega bo'lib, ta'lim tizimi, ijtimoiy muhit, davlat siyosati, milliy qadriyatlar hamda raqamli texnologiyalar rivoji bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Tahlillar asosida aniqlanishicha, xotin-qizlarning innovatsion tafakkurini rivojlantirishda eng muhim omillardan biri sifatli va zamonaviy ta'lim tizimining mavjudligidir.

Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlari xotin-qizlarning ilmiy va innovatsion faoliyatga faol jalb etilishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatining kengaytirilishi hamda xotin-qizlarning innovatsion loyihalarda ishtirokini qo'llab-quvvatlash innovatsion salohiyatni oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, jamiyatda gender tenglik tamoyillarining mustahkamlanishi, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari, jumladan grantlar, startap loyihalar va institutsional mexanizmlar xotin-qizlarning innovatsion faoliyatga kirib kelishini sezilarli darajada rag'batlantiradi. Oila va ijtimoiy muhitning qo'llab-quvvatlovchi xarakterga ega bo'lishi esa ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotda alohida ta'kidlanganidek, xotin-qizlar innovatsion tafakkuri faqat texnologik bilimlar asosida emas, balki milliy qadriyatlar va axloqiy tamoyillar bilan uyg'unlikda rivojlanishi lozim. O'zbek jamiyatining boy ma'naviy merosi va tarixiy an'analari xotin-qizlarda mas'uliyat, ijtimoiy faollik hamda ijodkorlikni shakllantirib, innovatsion fikrlashni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi xotin-qizlar uchun yangi imkoniyatlar ochib, ularning bilim olish va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanish ko'lamini kengaytirmoqda. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy asoslangan takliflar ilgari suriladi. Xotin-qizlarning innovatsion tafakkurini rivojlantirish uchun, avvalo, ta'lim tizimida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodologiyalarni izchil joriy etish, ularni ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarga keng jalb qilish zarur. Shu bilan birga, davlat tomonidan xotin-qizlarga mo'ljallangan grantlar, startap dasturlar va iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini yanada kengaytirish, ularning ilmiy va texnologik faoliyatdagi ishtirokini qo'llab-quvvatlash lozim. Jamiyatda gender tenglik tamoyillarini mustahkamlash, xotin-qizlarga nisbatan ijobiy ijtimoiy munosabatni shakllantirish hamda oila institutining qo'llab-quvvatlovchi rolini kuchaytirish innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, xotin-qizlarning ilmiy konferensiyalar, seminarlar va innovatsion platformalardagi ishtirokini rag'batlantirish ularning innovatsion tafakkurini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Umuman olganda, xotin-qizlar innovatsion tafakkurining rivojlanishi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yangilanish jarayonlarining ajralmas qismi bo'lib, u jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish va barqaror taraqqiyotga erishishda muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Авесто.** Тарихий-адабий ёдгорлик / Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 366–369.
2. **Женщина в древнем обществе** // *Молодой учёный*. – URL: <https://moluch.ru/archive/>
3. **Аристотель** // *Wikipedia*. – URL: <https://ru.wikipedia.org/wiki/Аристотель>
4. **Хотин-қизларни камситишнинг барча шакллариға барҳам бериш тўғрисида Конвенция** // Lex.uz. – URL: <https://lex.uz/docs/2685528>
5. **Мирзиёев, Ш. М.** Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 18.

ILMIY TAQRIZ

Mazkur maqola O‘zbekistonda yangilanish jarayonlari sharoitida xotin-qizlar innovatsion tafakkuri samaradorligini oshirish masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, zamonaviy ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan birini qamrab oladi. Tadqiqot mavzusi jamiyat modernizatsiyasi, gender tengligi va innovatsion rivojlanish masalalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ilmiy hamda amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolaning dolzarbligi, avvalo, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar sharoitida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va innovatsion faolligini oshirish zarurati bilan belgilanadi. Muallif mazkur jarayonni nafaqat zamonaviy ijtimoiy omillar, balki tarixiy, madaniy va ma‘naviy kontekstda ham tahlil qilganligi bilan mavzuning qamrovini kengaytirgan. Bu esa tadqiqotning ilmiy ahamiyatini oshiradi. Ilmiy yangilik nuqtayi nazaridan maqolada xotin-qizlar innovatsion tafakkurini rivojlantirish masalasi kompleks yondashuv asosida yoritilgan. Xususan, ta‘lim, ijtimoiy muhit, davlat siyosati, milliy qadriyatlar va raqamli texnologiyalar kabi omillarning o‘zaro bog‘liqligi asoslab berilgan. Muallif tomonidan innovatsion tafakkur faqat texnologik bilimlar bilan emas, balki axloqiy va madaniy qadriyatlar bilan uyg‘un holda shakllanishi zarurligi haqidagi g‘oya ilgari surilgani e‘tiborga loyiqdir.

Maqolaning amaliy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan xulosalar va takliflar davlat siyosatini takomillashtirish, ta‘lim tizimini rivojlantirish hamda xotin-qizlarning innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirishda foydalanilishi mumkin. Ayniqsa, gender tengligi siyosatini chuqurlashtirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini kengaytirish bo‘yicha ilgari surilgan fikrlar amaliy qiymatga ega. Metodologik jihatdan maqola tarixiy-mantiqiy, qiyosiy va tizimli tahlil usullariga asoslangan bo‘lib, muammo kompleks tarzda o‘rganilgan. Foydalanilgan manbalar, jumladan tarixiy asarlar, falsafiy qarashlar va normativ-huquqiy hujjatlar tadqiqotning nazariy asoslarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, empirik ma‘lumotlarning yetarli darajada keng jalb etilmaganligi tadqiqot natijalarining ayrim jihatlarida umumlashtirish darajasini biroz cheklaydi. Maqolaning kuchli tomonlari sifatida mavzuning dolzarbligi, nazariy asoslarning kengligi, ilmiy uslubning izchilligi va mantiqiy tuzilmaning puxtaligini qayd etish mumkin. Shu bilan birga, ayrim joylarda tahlilni yanada chuqurlashtirish, statistik yoki amaliy ma‘lumotlar bilan boyitish maqolaning ilmiy salmog‘ini yanada oshirgan bo‘lur edi. Umuman olganda, maqola dolzarb mavzuga bag‘ishlangan, ilmiy asoslangan va amaliy ahamiyatga ega tadqiqot hisoblanadi. Keltirilgan kamchiliklar maqolaning umumiy ilmiy qiymatiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmaydi. Shuni inobatga olib, mazkur maqolani tegishli ilmiy jurnalda chop etishga tavsiya etish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Disclaimer ©

This editorial review has been prepared by the Editorial Board of the *Journal of Fundamental Studies* for the purposes of internal editorial assessment and quality assurance within the journal’s publication process. This review is intended to provide an analytical overview of the scientific content, methodological approach, and thematic relevance of the submitted work. It does not constitute peer review, does not replace independent expert evaluation, and should not be interpreted as reflecting the personal views of the author(s) or as representing the official position of the journal. The Editorial Board assumes no responsibility for the implementation, interpretation, or consequences of any observations, comments, or analytical conclusions contained in this review. The review may include content generated with the assistance of artificial intelligence tools used for editorial support purposes.

This editorial review is provided solely to enhance transparency in the editorial process and to support the maintenance of academic and publication standards.